

DIQQAT E'LON!!! Akademik litseyda "Yosh kitobxon" ko'rik tanlov o'tkaziladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan **2018-yil 12-may kuni** «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi qaror imzolandi. Shu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida SamDChTI akademik litseyida ham **"Yosh kitobxon" ko'rik tanlov o'tkaziladi.**

Tanlovda ishtirok etadigan jamoalar:

- ✓ 1 bosqich o'quvchilar jamoasi
- ✓ 2 bosqich o'quvchilar jamoasi
- ✓ Litsey o'qituvchilar jamoasi

(Jamoada 6 ta a'zo bo'lib, saralash asosida qabul qilinadi)

 **1- bosqich 10- fevraldan boshlanadi . Belgilangan asarlarni o'qish.**

-  1."O'tkan kunlar" A. Qodiriy
-  2."Kecha va kunduz" A. Cho'lpon
-  3."Ikki eshik orasi" O'. Hoshimov
-  4."Yulduzli tunlar" P. Qodirov
-  5."Jimjitlik" S. Ahmad
-  6."Chinor" A. Muxtor
-  7.Jaziramadagi odamlar" L. Bo'rixon
-  8."Dunyoning ishlari" O'. Hoshimov
-  9. "Molxona" Jorj Oruell
-  10."Hayotga muhabbat" Jek London

 **2-bosqich 14-mart kuni bo'lib o'tadi.**

 **1-shart.** Badiiy asarlar bo'yicha test savollarini bajarish – **40 ball**



2-shart. Zakovat sinovi (Ushbu shartda biror asardagi syujetga oid ma'lumot o'qib eshittiriladi).

Ishtirokchidan ushbu asar nomini topishi hamda uning mazmun-mohiyati, bosh g'oyasi va ahamiyati to'g'risida qisqacha sharhlab berishi so'raladi. Sharhlash jarayonida ishtirokchining bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin) **-20 ball**



3-shart. Sirli raqamlar (raqam orqasiga badiiy asarlar nomi yashirilgan bo'ladi. Ishtirokchilar xohlagan raqamini tanlashadi va o'ziga tushgan asar haqida 3 daqiqa davomida asarning mazmun mohiyati to'g'risida umumiy ma'lumot berishi shart) **-20 ball**



4-shart. Menga eng yoqqan asar. (Mavzu, g'oya, boshqalarga o'qishga tavsiya etish sababi) **-20 ball**



“Yosh kitobxon” tanlovida g'olib bo'lgan ishtirokchilar SamDChTI akademik litsey direktori tomonidan rag'batlantiriladi.



1-o'rin uchun 500 ming so'm pul mukofoti.



2- o'rin uchun 300 ming so'm pul mukofoti.



3- o'rin uchun 200 ming so'm pul mukofoti.